

INVESTITSIYALAR VA ULARNING IQTISODIY ROLI

ИНВЕСТИЦИИ И ИХ ЭКОНОМИЧЕСКАЯ РОЛЬ

INVESTMENTS AND THEIR ECONOMIC ROLE

Fayziyev Diyorbek

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Bank ishi fakulteti talabasi

[*diyorbekfayziyev742@gmail.com*](mailto:diyorbekfayziyev742@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsiyalarning zamonaviy iqtisodiyotdag'i o'rni, ahamiyati va ta'siri tadqiq etilgan. Investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri, ularning turlari va samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Shuningdek, global investitsiya muhiti va O'zbekistondagi investitsiya siyosati o'rganilgan.

Kalit so'zlar: investitsiyalar, iqtisodiy rivojlanish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, kapital qo'yilmalar.

Аннотация: В этой статье исследуется роль, значение и влияние инвестиций в современной экономике. Проанализировано влияние инвестиций на экономический рост, их виды и показатели эффективности. Также были изучены глобальный инвестиционный климат и инвестиционная политика в Узбекистане.

Ключевые слова: инвестиции, экономическое развитие, прямые иностранные инвестиции, инвестиционный климат, капитальные вложения.

Abstract: This article explores the role, importance and impact of investment in modern economics. The impact of investments on economic growth, Their Types and performance indicators have been analyzed. The global investment climate and investment policy in Uzbekistan have also been studied.

Keywords: investments, economic development, foreign direct investment, investment environment, capital investments.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda investitsiyalar barqaror rivojlanishning fundamental omili sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalar nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki texnologik modernizatsiya, innovatsion rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishning samarali vositasi hisoblanadi [1]. Global raqobat sharoitida investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish har qanday davlatning iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Jahon iqtisodiyotidagi tizimli o'zgarishlar, raqamli transformatsiya va global qiymat zanjirlarining qayta taqsimlanishi sharoitida investitsiyalar yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun investitsiyalar

texnologik qoloqlikni bartaraf etish, sanoat salohiyatini oshirish va global bozorlarga integratsiyalashishning asosiy vositasi hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar investitsion muhitni tubdan yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni jalg qilish va milliy investorlar faolligini oshirishga qaratilgan. Bu jarayonda investitsiyalarning samaradorligini oshirish, ularni strategik ahamiyatga ega tarmoqlarga yo'naltirish va hududiy nomutanosibliklarni bartaraf etish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va sintez usullaridan foydalanildi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va statistik ma'lumotlar o'rganildi.

Keyns [2] o'zining "Bandlik, foiz va pulning umumiylazariyasi" asarida investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini chuqur tahlil qilgan. Uning fikricha, investitsiyalar multiplikativ samaraga ega bo'lib, iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi.

Solow [3] o'zining iqtisodiy o'sish modelida investitsiyalarning kapital jamg'arilishi va texnologik taraqqiyotdagi rolini ko'rsatib bergan. Zamonaviy tadqiqotchilardan Stiglitz [4] investitsiyalarning innovatsion rivojlanishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi.

O'zbek olimlaridan Vahobov [5] to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotga ta'sirini o'rgangan. Uning tadqiqotlari O'zbekistonda investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha muhim tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Investitsiyalarning iqtisodiy roli quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

Iqtisodiy o'sish va rivojlanish. Investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi [6]. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi global miqyosda 2023-yilda 1.3 trillion dollarni tashkil etgan.

Innovatsion rivojlanish. Investitsiyalar yangi texnologiyalarni joriy etish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi [7]. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish orqali iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir. Investitsiyalar yangi ish o'rinalarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish orqali jamiyat farovonligini oshiradi [8].

2024-yilning birinchi choragidagi investitsion faoliyat tahlili quyidagi muhim tendentsiyalarni ko'rsatmoqda:

Investitsiyalarning umumiylazariyasi 2024-yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 107,1 trln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 174,5% o'sish sur'atini qayd etdi. Bu ko'rsatkich so'nggi 5 yildagi eng yuqori o'sish sur'ati hisoblanadi.

Jadval 1:**Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi (2024-yil yanvar-mart)**

Moliyalashtirish manbai	Hajmi (trln. so'm)	Ulushi (%)
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	33,3	31,1
Korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari	18,8	17,6
Aholi mablag'lari	6,9	6,5
Tijorat bank kreditlari	5,2	4,8
Kafolatli xorijiy kreditlar	5,2	4,8
Boshqa manbalar	37,7	35,2

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar dinamikasida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. 2024-yilning birinchi choragida ularning hajmi 33,3 trln. so'mni tashkil etib, umumiy investitsiyalardagi ulushi 31,1 foizga yetdi. Bu ko'rsatkich 2023-yilning shu davriga nisbatan 10,1 foiz punktga oshganini ko'rsatadi.

Jadval 2:**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar taqsimoti (2024-yil yanvar-mart)**

Faoliyat turi	Ulushi (%)	Hajmi (trln. so'm)
Qayta ishslash sanoati	37,3	27,5
Elektr va gaz ta'minoti	19,1	14,1
Tog'-kon sanoati	16,9	12,5
Tashish va saqlash	5,6	4,1
Qishloq xo'jaligi	5,7	4,2
Boshqa sohalar	15,4	11,3

Investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina va uskunalarga yo'naltirilgan mablag'lar 54,5 trln. so'mni (50,9%) tashkil etdi. Bu holat ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va texnologik yangilanishga katta e'tibor berilayotganini ko'rsatadi. Qurilish-montaj ishlariga yo'naltirilgan investitsiyalar 42,7 trln. so'm (39,9%) ni tashkil etdi.



1-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi, trln. so'm



2-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlari dinamikasi, %da

Hududlar kesimida investitsiyalarning notekis taqsimlanishi kuzatilmoqda. Qurilish-montaj ishlari bo'yicha Xorazm viloyati (60,0%) va Sirdaryo viloyati (60,9%) eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etdi. Bu hududlarda infratuzilma loyihalariga alohida e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi.

Yangi qurilish va modernizatsiya Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar 66,5 trln. so'mni (62,1%) tashkil etgan bo'lsa, mavjud obyektlarni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashga 25,5 trln. so'm (23,8%) yo'naltirildi. Bu raqamlar iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga ustuvor ahamiyat berilayotganini ko'rsatadi.

Tarmoqlar bo'yicha tahlil Qayta ishlash sanoati xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda yetakchi tarmoq bo'lib qolmoqda (37,3%). Elektr va gaz ta'minoti sohasi ham sezilarli ulushga (19,1%) ega bo'lib, bu energetika sohasining strategik ahamiyatini ko'rsatadi.

O'zbekistonda investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari investitsion muhitni yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va milliy investorlar faolligini oshirishga qaratilgan. So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatning xalqaro reytinglardagi o'rni sezilarli darajada yaxshilandi [9].

Markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish nisbati tahlili

ko'rsatmoqdaki, 2024-yilning birinchi choragida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 99,5 trln. so'mni tashkil etib, umumiy investitsiyalarning asosiy qismini tashkil etmoqda. Bu holat bozor mexanizmlarining faollashganini va xususiy sektor rolining oshganini ko'rsatadi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi nuqtai nazaridan, 2024-yilning birinchi choragidagi ko'rsatkichlar salmoqli ijobiy dinamikani namoyish etmoqda. Xususan, investitsiyalarning YIMdagi ulushi sezilarli darajada oshgan. Bu esa iqtisodiyotning investitsion faolligini ko'rsatuvchi muhim indikator hisoblanadi.

Xorijiy investitsiyalarning sohalar bo'yicha taqsimoti tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, qayta ishslash sanoatidagi 37,3 foizlik ulush mamlakat iqtisodiyotining industriallashuv jarayoni jadal davom etayotganidan dalolat beradi. Elektr va gaz ta'minoti sohasidagi 19,1 foizlik ulush esa energetika infratuzilmasining modernizatsiyasi faol olib borilayotganini ko'rsatadi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar dinamikasidagi 258,0 foizlik o'sish sur'ati mamlakatning investitsion jozibadorligi oshganini ko'rsatadi. Bu natija investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Texnologik tarkib tahlili investitsiyalarning sifat jihatidan o'zgarayotganini ko'rsatmoqda. Mashina va uskunalarga yo'naltirilgan investitsiyalarning 50,9 foizlik ulushi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqamlashtirish jarayonlarining jadallahayotganini ko'rsatadi.

Hududiy taqsimot bo'yicha qurilish-montaj ishlarining Xorazm va Sirdaryo viloyatlaridagi yuqori ko'rsatkichlari mintaqaviy rivojlanish dasturlarining faol amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi. Bu esa hududlar o'rtaidagi iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish bo'yicha olib borilayotgan siyosatning amaliy natijasi hisoblanadi.

Investitsiyalarning tarmoqlar bo'yicha taqsimotida qayta ishslash sanoatining yetakchi o'rni (37,3%) mamlakat iqtisodiyotida yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan strukturaviy o'zgarishlar amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan investitsiyalarning 17,6 foizlik ulushi biznes sub'ektlarining moliyaviy barqarorligini va o'z rivojlanishiga investitsiya qilish imkoniyatlari oshganini ko'rsatadi.

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan investitsiyalarning 4,8 foizlik ulushi moliya sektorining investitsion jarayonlardagi ishtirokini yanada oshirish zaruratini ko'rsatmoqda.

Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning 62,1 foizlik ulushi iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlarining yaratilayotganini va iqtisodiy o'sish uchun moddiy baza shakllantirilayotganini ko'rsatadi.

Mavjud obyektlarni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashga

yo'naltirilgan investitsiyalarning 23,8 foizlik ulushi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarning faolligini ko'rsatadi.

Bu tendentsiyalar O'zbekistonda investitsion faoliyatning sifat jihatidan yangi bosqichga o'tganini, investitsiyalarning nafaqat miqdor, balki sifat ko'rsatkichlari ham yaxshilanayotganini ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Investitsiyalar zamonaviy iqtisodiyotning muhim harakatlantiruvchi kuchi sifatida barqaror rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi. Ular nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki innovatsion rivojlanish, texnologik modernizatsiya va ijtimoiy farovonlikni oshirishga ham xizmat qiladi. Global raqobat sharoitida investitsion jozibadorlikni oshirish va investitsiyalardan samarali foydalanish strategik ahamiyat kasb etmoqda.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

Birinchidan, zamonaviy sharoitda investitsiyalarning roli va ahamiyati tubdan o'zgarmoqda. Ular nafaqat kapital jamg'arish vositasi, balki texnologik rivojlanish, innovatsiyalar va bilimlar transferining muhim kanali sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ikkinchidan, O'zbekiston iqtisodiyotida investitsion faollik sezilarli darajada oshgan bo'lib, 2024-yilning birinchi choragida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 107,1 trln. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 174,5% o'sish sur'atini qayd etdi.

Uchinchidan, investitsiyalarning texnologik tarkibi va tarmoqlar bo'yicha taqsimoti tahlili iqtisodiyotda sifat o'zgarishlari ro'y berayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, qayta ishslash sanoati va energetika sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalarning yuqori ulushi mamlakat iqtisodiyotining industriallashuv jarayoni jadal davom etayotganidan dalolat beradi.

To'rtinchidan, investitsion faoliyatning samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ishlarni faollashtirish zarur:

- institutsional muhitni takomillashtirish;
- moliya bozorini rivojlantirish;
- investitsion loyihalarni baholash tizimini takomillashtirish;
- hududiy investitsion dasturlarning samaradorligini oshirish.

Kelajakda investitsiyalarning roli, ayniqla raqamli iqtisodiyot, "yashil" texnologiyalar va innovatsion rivojlanish sohasida yanada ortib borishi kutilmoqda. Bu esa investitsion siyosatni takomillashtirish, yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishni talab etadi.

Yuqoridagi xulosalar asosida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish

bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Blanchard.O. (2021). Macroeconomics, 8th Edition. Pearson.
2. Keynes. J.M. (1936). The General Theory of Employment, Interest, and Money. Macmillan.
3. Solow.R.M. (1956). A Contribution to the Theory of Economic Growth. Quarterly Journal of Economics, 70(1), 65-94.
4. Stiglit.J.E. (2019). People, Power, and Profits: Progressive Capitalism for an Age of Discontent. W.W. Norton & Company.
5. Vahobov.A.V. (2022). O'zbekistonda investitsion muhit va uni takomillashtirish yo'llari. Iqtisodiyot va Moliya, 3(151), 2-15.
6. Алимов.А. М., & Ахмедов, Д. К. (2023). Ўзбекистонда инвестиция мухитини яхшилаш: муаммо ва ечимлар. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 3(45), 23-35.
7. Вахабов. А. В., Хажибакиев, Ш. Х., & Муминов, Н. Г. (2023). Хорижий инвестицияларни жалб қилиш самарадорлигини ошириш йўллари: Ўзбекистон тажрибаси. Тошкент: "Иқтисодиёт".
8. Зайнутдинов. Ш. Н., & Нурмухамедова, Б. И. (2024). Ўзбекистонда инвестиция сиёсатининг устувор йўналишлари. Молия ва банк иши электрон илмий журнали, 1(2), 15-28.
9. OECD. (2023). OECD Investment Policy Reviews. OECD Publishing.